

MAMLAKATNING IQTISODIY O‘SISHIDA ISLOM MOLIYASINING AHAMIYATI

Ziyayev Jamshidbek Xurshidbek o‘g‘li

Toshkent moliya instituti “Soliqlar va sug‘urta” fakulteti talabasi

So‘nggi yillarda islomiy moliya FinTech sohalari bilan bir qatorda, shuningdek, xalqaro moliyaviy xizmatlar sanoatida eng jonli va shu bilan birga hali ko‘zga yaqqol tashlanmagan tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Islomiy moliya atamasi mahsulot va xizmat turlarining keng doirasini o‘z ichiga oladi. Islom moliyasi va banking umumiy amaliyotlari islom dinining o‘rnatilishi bilan birga paydo bo‘ldi. Biroq, institutsional islom moliyasi XX asrdan keyin tashkil etilgan. Qardus nashrining ma‘lumot berishicha, ayni paytda islom moliya sektori yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o‘sib bormoqda, islom moliya institutlari esa dunyo bo‘ylab umumiy qiymati 2,7 trillion dollardan ziyod aktivlarni boshqarmoqda.

Hozirgi vaqtda Islom moliyasi eng yaxshi yo‘lga qo‘yilgan uchta davlat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko‘rsatkichlar ko‘lami bo‘yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.

O‘zbekistonda «Islom bank ishi va moliyasi» tashkiloti (AlHuda) fikricha, MDH mamlakatlarida islom moliya sanoatining o‘sishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining e‘tiborini tortmoqda. MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki ishi sezilarli darajada o‘sadi.

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston MDHda islom banki va moliyasining bu kengayishida yetakchilik qiluvchi asosiy o‘yinchilar bo‘lishi mumkin, deyiladi bayonotda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda islom moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston — Markaziy Osiyoning 35 million ortiq aholiga ega muhim davlati, aholisining 93 foiz qismi musulmonlardir. U nafaqat gaz, neft va boshqa tabiiy resurslarga boy, balki azaldan ham ilm va islom dinining markazlaridan biri bo‘lib kelgan.

Dastlab, 2003 va 2004-yillarda O‘zbekiston ITB va xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasiga (ICD) a‘zoligi orqali islom moliyasini tan olish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ydi. Bu institutlar va hukumat o‘rtasidagi barqaror aloqalar islomiy moliyaga ushbu bozorga kirish nuqtasini qo‘lga kiritish imkonini berdi.



Islom iqtisodiyotining mohiyati ma'naviy mas'ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdan iborat. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Islom iqtisodiyoti modeli boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg'unlik) va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin emas, deb hisoblaydi.

Islom iqtisodiyotining asosiy qadriyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Islom ma'naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik;
- Teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash;
- Odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag'rikenglik.

Islom moliyasi tizimi — bu pul mablag'laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismidir. Masalan, Islom dinida qarz berish yoki olish evaziga foyda ko'rish taqiqlangan, barcha moliyaviy jarayonlar esa haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo'lishi kerak. Odamga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sohalarni moliyalashtirishga ruxsat berilmaydi — masalan, qimor o'yinlari, alkogol, tamaki mahsulotlari va boshqalar.

Islom iqtisodiyoti vositalaridan faqatgina musulmonlar foydalanishi mumkinmi? Yo'q. Hozirda iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini izlab, ham musulmon, ham musulmon bo'lmagan ko'plab davlatlar iqtisodiy diversifikatsiya uchun Islom iqtisodiyotiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Masalan, barcha sektorlarda innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratuvchi dunyoning yetakchi brendlari ham Islom iqtisodiyotiga qiziqish bildirmoqda.

«Deutsche Bank», «HSBC», «Citi» va «MasterCard» Islomiy moliya mahsulotlarini taklif qilmoqda. «Nestle», «Carrefour», «Walmart» va «Whole Foods» halol chakana mahsulotlarni sotadi. Global «Nielsen» tadqiqotining natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 66 foizi halol mahsulotlarga ko'proq pul to'lashga tayyor. Yosh iste'molchilar esa yanada sodiqroq — 73 foiz milleniallar halol mahsulot uchun ortiqcha pul to'lashga tayyor. Shu tariqa, global transmilliy korporatsiyalar Islom moliyasiga katta qiziqish bildirmoqda. Islom banklari loyihalarni moliyalashtirishdan foyda olishadi. Omonatchilari faqatgina dividendlarga e'tibor qaratgan holda, o'z mablag'lari nimalarga investitsiya qilinishini bilmaydigan an'anaviy banklardan farqli ravishda, Islom banklarida omonatchi pul mablag'larining kelgusidagi harakatini ko'rishi mumkin, bunda mablag' biznesga investitsiya qilinadi hamda foydasi bank va omonatchi o'rtasida bo'linadi. Moliyalashtirishning islomiy modellarining qoidalaridan biri — bu risklarni taqsimlashdir. Biznesda foyda ko'rilmaganda bank ham, mijoz ham daromad



olmaydi. Lekin agar foyda bo'lsa, u omonatchi o'rtasida sarmoyaga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Islom moliyasini oson tushunib olishingizga yordam beradigan bir nechta atamalar mavjud.

«Murobaha» — bu tovar narxiga ustama qo'yiladigan va qo'yilmaydigan halol muddatli to'lov. Bunda Islom banklari mahsulot va xizmatlarni xarid qilish va keyin ularni muddatli to'lovga sotish bilan shug'ullanadi.

«Mushoraka» — bitta g'oya yoki ishni birgalikda moliyalashtirish. Jismoniy shaxslar va korxonalarining ishtirok etishiga ruxsat beriladi. An'anaviy iqtisodiyotda ushbu sxemani hissali moliyalashtirish deb atashadi.

«Muzoraba» — sarmoyador o'z mablag'ini kelgusida biznesni rivojlantirishga sarflanishi uchun moliyaviy tashkilotga beradi. Foydani taqsimlash shartlari oldindan kelishib olinadi. Savdo-sanoat palatasining BMTTD bilan o'tkazgan tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatdiki, so'rovda qatnashgan biznes vakillarining 38 foizi va jismoniy shaxslarning 56 foizi an'anaviy banklardan diniy e'tiqodlari sababli kredit olishmaydi. Shu tariqa, Islom qoidalariga rioya qiladigan moliya tashkilotlariga talab paydo bo'lmoqda. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining baholashiga ko'ra, Islom moliyasini joriy etish budjetga qo'shimcha 100 mln. dollar foyda keltiradi.

Shu bilan bir qatorda, ITB mamlakat iqtisodiyotiga faol ravishda sarmoya kiritib bormoqda. Masalan, joriy yilning sentabr oyida Islom taraqqiyot banki Surxondaryoda IES qurilishi va transport infratuzilmasi uchun O'zbekistonga 200 mln dollardan ortiq mablag' ajratdi.

Lekin, O'zbekiston aholisi uchun ushbu sohaning yanada tezroq rivojlanishi va Islom banklarining paydo bo'lishiga huquqiy-me'yoriy asosning yetishmasligi, soliq va boshqaruv infratuzilmasining yo'qligi, shuningdek, aholi orasida ayniqsa Islomiy moliyalashtirishga aloqador moliyaviy savodxonlikning pastligi xalaqit bermoqda.

Ideal Ratings United States Businnes Intelligence idealratings.com

iFarmer Bangladesh Raising Funds ifarmer.asia

IFIN Services WLL Bahrain Alternative Finance ifinservices.com

IGrow.asia Indonesia Raising Funds igrow.asia

Ila Bank Bahrain Deposits and Landing ilabank.com

IMAN Uzbekistan Raising Funds iman.uz/invest/en

INAIA Germany Wealth Management inaia.de

IndiaZakat India Social Finance indidazakat.com

Infinity Blockchain Ventures Thailand Enabling Technologies
infinityblockchain.ventures



Insha Germany Deposits and Landing getinsha.com
 InvestPropenti Indonesia Raising Funds investpropeti.id
 Afsuski, Global Islamic Fintech`ning 2022 yil uchun yillik hisobotida islomiy Fintech kompaniyalarning 375 talik ro'yxatida O'zbekistondan faqatgina bitta tashkilot ro'yxatga olingan.

1-jadval

Global Islamic Fintechning 2022 yil uchun yillik hisoboti¹

Ideal Ratings	United States	Business Intelligence	idealaratings.com
<u>iFarmer</u>	Bangladesh	Raising Funds	ifermer.asia
<u>IFIN Services WLL</u>	Bahrain	Alternative Finance	ifinservices.com
<u>IGrow.asia</u>	Indonesia	Raising Funds	igrow.asia
<u>Ila Bank</u>	Bahrain	Deposits and Landing	ilabank.com
<u>IMAN</u>	Uzbekistan	Raising Funds	iman.uz/invest/en
<u>INAIA</u>	Germany	Wealth Management	inaia.de
<u>IndiaZakat</u>	India	Social Finance	indidazakat.com
<u>Infinity Blockchain Ventures</u>	Thailand	Enabling Technologies	infinityblockchain.ventures
<u>Insha</u>	Germany	Deposits and Landing	getinsha.com
<u>InvestPropenti</u>	Indonesia	Raising Funds	investpropeti.id

Bu IMAN Invest bo'lib, O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya hisoblanadi.

Taqdim etilgan ochiq ma'lumotlarga asosan bugungi kunda Battery Road, Tesla Capital (umumiy hisobda \$350 000), Uzcard Ventures va Uzcard VC (\$160 000), Le Mercier's va MyAsia (\$45 000), Umay Angels Club hamda Block 0 (\$70 000) venchur fondlari IMAN`ga investitsiya kiritgan.

An'anaviy bank faoliyati	Islom banki faoliyati
Pul ayirboshlash va qiymatni saqlash vositasidan tashqari tovardir. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish va ijaraga berish ham mumkin.	Pul tovar emas, lekin u ayirboshlash vositasi va qiymatni saqlash vositasi sifatida ishlatiladi. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish yoki ijaraga berish mumkin emas.
Vaqt qiymati kapitalga foizlarni hisoblash uchun asosdir.	Tovar savdosidan yoki xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromad foyda olish uchun asos bo'ladi.
Bank mablag'laridan foydalangan holda tashkilot zarar ko'rgan taqdirda ham foizlar undiriladi. Shuning uchun u foyda va zararni taqsimlashga asoslanmagan.	Islom banki foyda va zararni taqsimlash asosida ishlaydi. Agar tadbirkor zarar ko'rgan bo'lsa, bank bu yo'qotishni qo'llanilgan moliyalashtirish usuliga qarab taqsimlaydi (Mudarabah, Musharaka).



Naqd pul mablag'larini berish, moliyalashtirish yoki aylanma mablag'larni moliyalashtirishda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo'yicha kelishuv tuzilmaydi.	Murabaha, Salam va Istisna shartnomalari bo'yicha mablag'larni taqsimlashda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo'yicha shartnomalar bajarilishi shart.
An'anaviy banklar pulni inflyatsiyaga olib keladigan tovar sifatida ishlatadi.	Islom banki savdo bilan bog'liq faoliyatdan foydalangan holda iqtisodiy tizimning real sektorlari bilan aloqa o'rnatishga intiladi. Chunki pul real aktivlar bilan bog'liq bo'lgani uchun u iqtisodiy taraqqiyotga bevosita hissa qo'shadi.
An'anaviy bank asosiy e'tiborni kreditlashga qaratadi.	Islom banki asosiy e'tiborni sarmoyaga qaratadi.
An'anaviy banklar faqat moliyaviy mezonlar asosida ish yuritadi.	Islom banklari investitsiyada axloqiy mezonlarga asoslanadi.
An'anaviy banklarning faoliyati inson omiliga (asosan kapitalizm nazariyalariga) asoslanadi.	Islom banklari faoliyati islom shariatining qoidalariga asoslanadi.
Investor yoki kreditor oldindan belgilangan foiz stavkasi bo'yicha savdo qiladi yoki daromadni kafolatlaydi.	Islom banklari kapitalning egasi bilan investor o'rtasida risk taqsimotini tasdiqlaydi.
Derivatlar savdosi asosida foydani maksimalashtirishni tasdiqlaydi.	Islom dini tomonidan cheklovlar mavjud bo'lsa-da, u foydani maksimal darajada oshirishga qaratilgan.
Zakat tizimi mavjud emas.	Zamonaviy islom bank tizimida islom banklari «Zakat yig'ish markazlari»ga aylanishi uchun xizmat qiluvchi birlik sifatida ko'riladi.
Ular qarzga pul berib, foiz bilan qaytarib olishadi. Pul — bu tovar va motivator.	Ishtirok etish hamkorligi mavjud. Korxonani tushunish juda muhimdir.
Tizimda muntazam to'lovlarni amalga oshirmaydiganlardan (masalan, jarimalar yoki oshirilgan foizlar) qo'shimcha pul olish mumkin.	Islom banklari kompensatsiyadan tashqari qo'shimcha pul talab qilishga haqli emas. Bankning ixtiyoriga ko'ra erta to'lovlarda puldan chegirma ham mavjud.
Ko'pincha bank manfaati birinchi o'rinda turadi va kapitalga mos ravishda o'sish maqsadi yo'q.	Inson manfaatlari ustuvor bo'lib, o'sish tenglikka qaratilgan.
Loyihani baholash ko'p kuch talab etmaydi, chunki avans/ssudadan olinadigan daromad belgilangan. Shuning uchun xavflar qaysidir ma'noda boshqa tomonga yuklanishi mumkin.	Foyda va zararni taqsimlash mavjud bo'lgani sabab, islom bankchiligida loyihalarni qo'llash va baholashga ko'proq e'tibor qaratish lozim.
An'anaviy banklar o'z mijozining ishonchli ekaniga ko'proq e'tibor beradi.	Ular loyihalarning moliyaviy imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.



<p>Tomonlar munosabatlarda kreditorlar va qarz oluvchilar shaklida belgilanadi.</p>	<p>Islom banklaridagi munosabatlar hamkorlar, investorlar, treyderlar, xaridorlar va sotuvchilar sifatida belgilanadi.</p>
<p>An'anaviy banklar ularga qo'yilgan barcha depozitlarni kafolatlashi kerak.</p>	<p>Islom banklari shaxsiy hisobvaraqlarga qo'yilgan pullarni kafolatlaydi, ammo mudaraba investitsiyalariga kafolat bermaydi, chunki boshqa tomonning yo'qotishlarini bo'lishadi.</p>

Sukuk emissiyalariga bo'lgan talabning o'zgarishi. Umumiy xulosa qilib aytganda, Islamic Fintech sohasi faoliyati 2025 yilga borib prognoz qilingan tranzaksiyalar hajmi jami 128 milliard AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Islom moliyasi mahsulotlaridan foydalanish uchun amaldagi bank qonunchiligi, soliq va fuqarolik kodekslari hamda boshqa qonunosti hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish yoki alohida qonun qabul qilinishi lozim. Shuningdek, bu sohada kadrlarni tayyorlash va aholining savodxonligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Aynan islomiy moliyalash tizimi aholi qo'lidagi bo'sh mablag'larni real iqtisodiyotga jalb qilish orqali ham iqtisodiyot, tijorat va aholi farovonligini sezilarli darajada faollashtirishga qo'shimcha imkon yaratadi.

